

MILLIY XALQ O'YINLARINING BOLALAR HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim
fakulteti kafedra mudiri

Aziza Kamoliddin qizi Gulomiddinova

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim
fakulteti 304-guruh talabasi

Annotatsiya

Ma'lumki, inson o'z hayotida o'yin, o'qish, mehnat va dam olish kabi mashg'ulotlar bilan band bo'ladi. Inson hayotining dastlabki davrlarida o'yin asosiy faoliyat hisoblanadi, keyin esa o'qish bilan baravar davom etadi, undan so'ng esa o'yin kamayib uning o'rmini o'qish va mehnat faoliyati egallaydi. Odamzod tarixining dastlabki davrlarida o'yinlar hayotda muhim o'rin tutgan. Mazkur maqolada milliy xalq o'yinlarining bola hayotida tutgan o'rni to'g'risida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar. Milliy oyinlar, ommaviy tadbirlar, ijodiy faoliyat, tashkilotchilik qobiliyati, gadjetlar, aql charxi

Milliy xalq o'yinlari asrlardan asrlarga o'tib kelgan, xalqning dono tajribasini o'zida jamlagan, ruhiyat, tanani chiniqtirish choralar sifatida asriy sinovlardan o'tgan, qanchalab sarkardalar-u, xalq qahramonlarining kamolga yetishuvida asos vazifasini o'tagan.¹

Xalq milliy o'yinlari milliy qadriyatlar tarkibidagi xalqning eng sevimli ommaviy ma'naviy tadbirlaridan biridir. Ma'lumki, inson o'z hayotida o'yin, o'qish, mehnat va dam olish kabi mashg'ulotlar bilan band bo'ladi. Inson hayotining dastlabki davrlarida o'yin asosiy faoliyat hisoblanadi, keyin esa o'qish bilan baravar davom etadi, undan so'ng esa o'yin kamayib uning o'rmini o'qish va mehnat faoliyati egallaydi. Odamzod tarixining dastlabki davrlarida o'yinlar hayotda muhim o'rin

¹ Абдуллаев А. А..Миллий халқ ўйинлари ва соглом авлод тарбияси Замонавий таълим / Современное образование 2017, 9. Б 65-70



tutgan. O‘yinlar yordamida insoniyat o‘sigan, ulg‘aygan, chiniqqan, jismonan baquvvat bo‘lgan, aqlan, ruhan rivojlangan, ma’naviy kamol topgan.²

M.Mamatov fikricha, “Bolalar ijodiy faoliyat ko‘rsatib o‘yin o‘ynar ekanlar, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lib tarbiyalanadilar. Ularda bir maqsad yo‘lida o‘rtog‘iga yordam berish, mustaqil ravishda yoki o‘rtoqlari bilan birga biror masala yuzasidan qaror qabul qilish ijodiy tashabbuskorlik namunasi hisoblanadi” [3,54]. Milliy o‘yinlarning har qanday turi bolalarda juda ko‘plab insoniy sifat va xususiyatlarni shakllantiradi. Milliy o‘yinlar ma’lum millat vakillari bo‘lmish yoshlarni kelajakda aynan shu milliy ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli turmush kechirishini ta’minalashga qaratilgandir. Bola psixikasining rivojlanishida o‘yin faoliyati asosiy hisoblanib, bilish jarayonlari bo‘lgan idrok, xotira, tafakkur taraqqiyotini ta’minalaydi.

Milliy o‘yinlarning deyarli barchasi harakatni, chaqqonlikni talab etadi. Masalan, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Berkinmachoq”, “Quvlashmachoq”, “Jambul rayhon”, “Oshiq moshiq”, “Xola-xola”, “Qorxat”, “Ko‘pkari”, “Uloq”, “Bog‘lam-bog‘lam”, “Qorg‘on olish”, “G‘irboydi”, “Chorpo‘choq”, “Xezzov”, “Sichqon mushuk”, “Arqon tortish”, “O‘rtaga kir”, “Toptosh”, “Xachchaxola”, “Halolpakka”, “Bayroq og‘irlash”, “Arg‘amchida sakrash” kabi milliy o‘yinlarimiz ro‘yhatini mingga yetkazish mumkin

«Mono‘z-mono‘z» o‘yinining ko‘rinishi, mohiyati quyidagicha: Bolalar tiz cho‘kib, qumloqda (dengiz bo‘yida) o‘tiradurlar. Sonlari orasiga ho‘l qum solib to‘ldiradilar. So‘ng qo‘llari bilan qumni uradilar. Ulardan biri ona boshi bo‘lib, mono‘z-mono‘z, deydi. Qolganlarina mono‘z – nimaning mo‘nguzi – shoxi, deb so‘raydilar. U birin-ketin shoxli hayvonlarning nomini sanay boshlaydi. Ona boshining ketidan bolalar ham takrorlaydi. So‘ng ona boshi shu nomlar ichidan shoxi yo‘q hayvonlarni tuya, ot, qo‘y kabilarni aytib, bolalarni chalg‘itadi. Qaysi bola uning ketidan shoxsiz hayvon nomini aytib yuborsa, u o‘yindan chiqariladi. Bu o‘yin o‘g‘il va qiz bolalar ishtirokida o‘ynalaveradi. Bundan maqsad-o‘yin jarayonida bolaning fikrini jamlash, doimo hushyor turishga undash, ko‘nikma hosil qilishdan iborat. Bu bir jihat, ikkinchidan bolalarda o‘zlari yashab turgan hududdagi jonivorlar haqidagi tasavvurlarini boyitishdir.

² Абдукодирова Угилхон Абдурахмон кизи. Халқ уйинларининг бадий эстетик ахамияти. Journal science and innovation international scientific journal 2022 №1. Б 814-821



Qadim Sharqda mashhur bo‘lgan chovgon o‘yinini bolalar o‘zlariga mos tarzda kichik «chovgonlarini» o‘ylab topgan. «Devonu lug‘otit turk»da bu o‘yin «tobiq» deb ataladi.

«Chovgonlar» o‘yining ta’rifi quydagicha: o‘g‘il bolalar bir-birlarini «ot» qilib minganlar va «Ot»ning xatti-harakatlariga xos yo‘rg‘alaganda bola o‘zini tutolmay, yiqilsa, yutqazgan hisoblangan. Keyingi o‘rinlarda yutqizgan yutgan bola bilan o‘rin almashgan. Bu o‘yindan ko‘zlangan maqsad ham bolalarda chaqqonlik va epchillikni, har qanday holatda ham hushyor turish qobiliyatini shakllantirgan. Keyinchalik bolalar yigit yoshiga yetib, chavondozlik o‘yinlari – kamon otish, kurash tushish, nayza uloqtirish, qilichbozlik o‘yinlarida ham o‘z mahoratlarini oshirishganki, kelajada ular yovqur va chapdast, Vatan himoyasida doimo sobit turganlar. Milliy bolalar o‘yinlari yoshlikdan or-nomus, g‘ayrat-shijoat, sadoqat va vafo kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Milliy o‘zbek o‘yinlari bola tarbiyasiga, sog‘ligiga ijobiy ta’sir etib, serharakatligi barcha organizm va muskullarni o‘stiruvchanligi, chidamlikka o‘rgatuvchi, chiniqtiruvchi harakatlardan tashkil topganligi bilan boshqa xalq o‘yinlaridan farq qiladi. O‘zbek xalq o‘yinlari hayotiyligi, har tomondan o‘ylab yaratilganligi uchun ham katta-yu kichik va hatto xotin-qizlar tomonidan ham sevib o‘ynaladi. Otabobolarimiz o‘z farzandlarini kelajakda qiyinchiliklar oldida dovdiramaslik, qo‘rqmaslik uchun har jihatdan ham ma’nан ham jismonan baquvvat qilib tarbiyalaganlar. Bu yo‘lda xalq o‘yinlarimizning ahamiyati tengsizdir. Xalq o‘yinlarimiz bolaning jamiyatga qo‘shilishi, o‘ziga baho bera olishida asosiy vosita bo‘lgan. Ming taassufkiy, hozirgi kunda harakatli o‘yinlar turli xildagi gadjetlarga ko‘chgani sabab yaqin kelajakda milliy o‘yinlarning tarixga aylanish ehtimoli yo‘q emas, albatta. Ko‘klam kelishi bilan yerlar, qir-adirlar taniga issiqlik yuguradi. Bunday paytda qish bo‘yi uyiga berkingan bolalar azaldan ko‘chalarga chiqib o‘yinlar o‘ynashgan. Biroq ohirgi o‘n yillikda bolalar o‘ynagan xalq o‘yinlari gadjetlarga ko‘chdi va ulardagи jismoniy faoliyat asta-sekin pasayib boryapti. Shomirza Turdimovning aytishicha, milliy o‘yinlarimizning ko‘pi 2010-yildan keyin deyarli o‘ynalmay qo‘ygan va ular kompyuter, telefonlarga ko‘chgan. Uning fikricha, “milliy o‘yinlarning bolani jamiyatga qo‘sishdagi o‘rnini hech nima bilan to‘ldirib bo‘lmaydi”. O‘yinlar-bolaning ham aqlan ham jismonan rivojlanishiga yordam beradi. O‘yin bolani jamiyatga aralashtiradi. Uning jamiyatdagi o‘rnini topishiga yordam beradi, sababchi bo‘ladi. Chunki o‘yinda bola o‘yinboshi bo‘ladi,



ishtirokchi bo‘ladi, unga jamiyat, dunyo haqida bilim beradi. Eng qizig‘i bu bilimlar bolaga majburan emas, balki unga zavq uyg‘otib o‘rgatiladi. Aslida bizning xalq pedagogikamiz mohiyati ham shundan iborat", deydi. Gadgetlardagi o‘yinlar tasavvurni, aqlni charxlashi mumkin, lekin kompyuter, telefon o‘yinlari deyarli harakatsiz o‘yinlardir. U o‘yinlarda bola faqat kuzatish bilan band bo‘ladi..

Qamar, qamar, qamchini

Qovurg‘aning yanchini

Oq terakmi, ko‘k terak?

Bizdan sizga kim kerak?

Kichkina Salim kerak

Shundan so‘ng o‘sha chaqirilgan bola yugurib kelib, raqib jamoa a'zolarining qo‘l ushlashib turgan yerini ko‘kragi bilan uzishga urinadi. Agar qo‘llar ushlangan joyidan uzilib ketsa, raqib tomondagi bolalardan hohlaganini o‘z jamoasiga olib ketadi, uzolmasa, o‘zi o‘sha jamoada qoladi. O‘yin shu tariqa navbat bilan davom etadi. Qaysi jamoada o‘yinchilar qolmasa, o‘sha jamoa yutqazgan bo‘ladi.

Biz boyagi hovlida

Bo‘lib tarafma-taraf.

Navbat bilan aytishdik,

Taraf-tarafga qarab.

Oq terakmi, ko‘k terak?

Bizdan sizga kim kerak?

Eng a'luchi Afruza!!!

Oq terakmi, ko‘k terak?

Bizga Afruza kerak!!!

Inson saodatga, insoniy fazilatga erishmog‘ida bolalar milliy o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati katta. Bugungi axborot texnologiyalari farzandlarimiz aql shuurini band etgan. Yoshlarni milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, o‘chmas merosimizga mehr-muhabbat, ularga sodiqlik ruhida tarbiyalay olsak, ularda milliy g‘urur, milliy ong, milliy g‘oya, ma’naviyat, yuksak madaniyat egasi kabi tushunchalarni ularning ongiga singdirsak, marra bizniki bo‘ladi. Chunki tarixni bilmasdan, o‘rganmasdan undan ruhiy, ma’naviy ozuqa olmasdan orzu niyatlarga erishish qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаев, А. А. (2017). Миллий халқ ўйинлари ва соғлом авлод тарбияси. Современное образование (Узбекистан), (9), 65-70.
2. Абдукодирова У.А. Халқ уйинларининг бадиий эстетик ахамияти. Journal science and innovation international scientific journal 2022 №1. Б 814-821
3. Хидоятова, Г. (2022). ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА МИЛЛИЙ ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА МАРОСИМЛАРИНИНГ РОЛИ. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 1(25), 121–126
4. Abdullayevna, G. G. (2023). Importance of Pictures Based On Fairy Tales In Spiritual And Moral Education Of Preschool Children. Academia Science Repository, 4(6), 289-292.
5. Abdullayevna, G. G. (2023). Importance Of Pictures Based On Fairy Tales In Spiritual And Moral Education Of Preschool Children. Academia Science Repository, 4(6), 289-292.
6. Тешабаева, З. С., & Киргизбаева, М. К. (2023). «ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ» (НА ПРИМЕРЕ ПРЕПОДАВАНИЯ МОДУЛЯ «ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ СЦЕНИЧЕСКОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ»). Journal of new century innovations, 20(3), 189-193.
7. Gaynazarova, G. A. (2023). OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO’LGAN BOLALAR MA’NAVIYATIDA IJTIMOIY MUHITNING TA’SIRI" GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
8. Gaynazarova, G. A. (2023). Characteristics Of Child Violence And Its Negative Consequences. Лучшие интеллектуальные исследования, 8 (1), 32-35.
9. Imamova, N. Z., & Abdulhakimova, M. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BAYRAM ERTALIKLARI ORQALI BOLALARINI MAKTABGA TAYYORLASH MAZMUNI. Science and innovation, 2(Special Issue 4), 66-68.
10. Imamova, N. (2022). IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY AND CREATIVITY DEVELOPMENT IN TRAINING TEACHERS. Science and Innovation, 1(7), 676-679.